

**TA'LIM VA INSON KAPITALI – YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOTINING ASOSIY DRAYVERI**

Ma'rufova Maxfiratoy Ne'matjon qizi

*Andijon Davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Tasviriy san'at yo'nalishi 1- bosqich Magistranti*

Annotatsiya: *Quyida ta'lim va inson kapitalini rivojlanish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'lib, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi va global raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil ya'ni drayveri (asosiy kuch, omil yoki turtki) ekanligini isboti bilan ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega, kreativ va tashabbuskor insonlarni tarbiyalash orqali innovatsion iqtisodi shakllanadi, kambag'allik qisqaradi va jamiyatning intellectual salohiyati yuksaladi. Shu bois ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini kuchaytirish hamda uzluksiz ta'limni rivojlantirish inson kapitalini mustahkamlashning hal qiluvchi sharti hisoblanadi.*

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston—2030" strategiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni.

Kalit so'zlar: *drayver, infratuzilma, modernizatsiya, inson kapitali, mamlakat suvereniteti.*

Kirish: Prezident farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangan. Ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish — aholi turmush darajasini oshirish, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choralar majmuidir. Bu yo'nalishlar

davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Asosiy takomillashtirish yo‘nalishlari:

Ta‘lim tizimi: Ta‘lim sifatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini yuksaltirish va yangicha ta‘lim metodikalarini joriy etish.

Tibbiyot tizimi: Tibbiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, xususiy sektorni rivojlantirish, davolashning samarali usullarini joriy etish va aholini sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash.

Ijtimoiy himoya: Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash, zo‘ravonlikning oldini olish, vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish hamda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish. Ushbu islohotlar orqali fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va kelajak avlod uchun munosib sharoit yaratish maqsad qilingan. Ya‘ni ushbu strategiyaning bu yo‘nalishida maktabgacha va oliy ta‘lim qamrovini oshirish, ta‘lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmfan va innovatsiyalarni rivojlantirish asosiy maqsadlardandir. Bu bilan yurtimizdagi ta‘lim sifati yanada yaxshilanib o‘tib davlatimizning rivojlanishi uchun yana bir turtki yana bir qadam bo‘lib xizmat qiladi. Hamda bilimli malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifati ko‘rsatkichlari o‘sadi.

Bu borada 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining o‘rta muddatga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari, maqsadlari hamda ularga erishish bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilab berdi. Bunda, barqaror iqtisodiy o‘shish, yangicha ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

Biroq, bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta‘minot zanjirlarining qayta shakllanishi O‘zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Inson kapitali (ing. human capital— bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko‘nikmalar to‘plami.)ga kiritilgan investitsiya iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi. Inson kapitaliga etibor-asosiy vazifalardan biri. Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O‘zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish — innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi

shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi. Shunday ekan inson kapitaliga kiritilgan investitsiya bu iqtisodiy o'sishni eng samarali usulda tezlashtirishdir. Shu boisdan ham prezidentimiz o'zining bu qarorlari bilan iqtisodiyotni eng yuqori ko'rstkichli o'sishga olib chiqmoqchi ekanligini anglashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi Axborot xizmati
2. <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. Strategy.uz
4. <https://strategy.uz/>

